



№ 1/2026

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ADPI
Ilmiy xabarnomasi



ADPI Ilmiy xabarnomasi

№ 1 2026 fevral

Jurnal 2023-yildan chop etilmoqda

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
2022-yil 25-oktyabrda
№ 045013 raqam bilan ro'yxatga olingan
ISSN 2181-4309

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi huzuridagi
Oliy attestatsiya komissiyasi
Rayosatining 2024-yil 8-maydagi
№354-sonli qarori bilan
Pedagogika fanlari bo'yicha Oliy attestatsiya
komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy
natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar
ro'yxatiga kiritilgan.

Tahririyat manzili: 170100 Andijon shahri,
"Do'stlik" ko'chasi, 4uy, 216-xona.
Electron manzil: info@adpi.uz
Telegram: ADPI_Ilmiy_xabarnomasi
Telefon raqamlari: +998 91 484 40 90

1/1

BOSH MUHARRIR:
B.M. Rasulov- tarix fanlari doktori (DSc), professor
Mas'ul muharrir:
B.A. Sirojiddinov- biologiya fanlari doktori (DSc), professor

TAHRIR KENGASHI

S.Z. Zaynobiddinov- O'zRFA akademigi
I.R. Asqarov- kimyo fanlari doktori, professor
Sh.X. Yo'lchiyev- fizika-matematika fanlari doktori, (DSc), professor
A.E. Zaynabiddinov- biologiya fanlari doktori, professor
B.X. Amanov- biologiya fanlari doktori (DSc), professor
A.A. Egamberdiyev- falsafa fanlari doktori (DSc), professor
M.V. Xalimova- psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Sh.J. Yusupova - pedagogika fanlari doktori, professor
Z.E. Azimova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
M.B. Artiqova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
V.A. Qodirov- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
N.J. Abdullayeva- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
M.A. Tojiboyeva – filologiya fanlari doktori, professor
Sh.A. Xaitov- tarix fanlari doktori (DSc), professor
A.G. G'aniyev- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
M.K. Pozilov -biologiya fanlari doktori (DSc). professor
T.T. Kaziyeva- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
U.A. Usmanova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
D.T. Samatov- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
A.Xakimov- pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
M.T.Parpiyev- falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent
A.A. Zaparov- texnika fanlari nomzodi, professor
U.A. Saliyev- tarix fanlari nomzodi, professor
M.I. Israil- filologiya fanlari doktori, professor
L.A. Muxammadjonova- falsafa fanlari nomzodi, professor
Sh.A. Xasanov - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
X.T. Komilova pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
M.Sh. Alimova - siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Q. Ibaybullayev- falsafa fanlari nomzodi, dotsent
D.T. Samatov- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
O'M. Muxtarov- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
S.N. Yusupova- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
B.M. Do'monov- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
E.A. Tajimirzayev- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
K.S. Karimov – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
A.A. Yuldashyev- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
M.J. Abduraxmonova - biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
M.M. Muydinova- fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
J.B. Qoraboyev- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
N.T. Mo'yidinov- kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
D.A. Sobirova- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
E.B. Abdullayev- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'.Sh. G'ulomov- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
L.S. Yunusov - biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
U.Sh. Uktamov - geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
M.G'. Ergasheva - tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)
N.S. Yaqubov- tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)
M.I. O'rinboev- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muharrirlar:
O.Karimov,
U.Malikova,
B. Mashrabova.

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA

Hasanov Sh.A. Adabiyot fani o'qituvchisining kasbiy kompetensiyalari talqini	4
Qoraboyev J.B. "Giperbola konseptual semantikasi"ni voqelantiruvchi til birliklarining lingvokognitiv, psixolingvistik, sotsiolingvistik va lingvostilistik tavsifi	8
Umurzaqova N.S. Bo'lajak farmaseftlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi	13
Камалходжаева С.С. Язык как объект лингвистического исследования	16
Абдуллаева А.Э. Современные и передовые педагогические технологии в преподавании иностранных языков	19
Karimov O.T., Mirzayev O.X. Talabalarni iqtidorli o'quvchilar bilan "lumiyyera" metodi asosida ishlashga tayyorlashning didaktik imkoniyatlari	23
Jo'rayeva M.A. Kasbiy tayyorgarlikni integrativ yondashuv asosida shakllantirish	29
Ikromov M.X., Abduraimova M.A. Talabalarga muhandislik kompyuter grafikasidan foydalanib o'qitishning mazmuni	33
Ikromov M.X., G'ulomova M.N. Rangtasvir darslarida axborot-kommunikatsiya va vizual texnologiyalardan foydalanish	37
Mamatisaqova G.A. Farmasevtika ishi yo'nalishida kompetensiyaga asoslangan ta'limni rivojlantirishda xorij tajribasi	41
Mamadaliyev B.K. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilar uchun kreativ fikrlashni rivojlantiruvchi amaliy mashg'ulotlar tizimini ishlab chiqish	45
Axmedova D.X. Boshlang'ich ta'limda ijodiy yozuv ko'nikmalarini shakllantirishning yangi metodlari	48
Kosimova G.M. Yangi pedagogik texnologiyalar vositasida darsliklar bilan ishlash bo'yicha o'quv jarayonini loyihalash	53
Xoldarova M.Q., Tairova M.B. Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarida nutq o'stirish darslari orqali "soft skills" ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	57
Abdurahmonova H.V. Saniye Benjik Kanganing o'yin pedagogikasi va rivojlantiruvchi muhit haqidagi qarashlari	61
Xurshidbekov A.M. Erkin kurashchilarda tezlik sifatining shakllanishi va rivojlanishining uslubiy asoslari	67
Olimjonov O.O. Integratsiyalashgan tarbiya: talabalarda jismoniy salohiyat va ma'naviy immunitetni shakllantirish usullari	71
Usarov M.M. Talabalar estetik kompetensiyalarini rivojlantirishda milliy xalq o'yinlaridan foydalanining dolzarbligi	75
Karimova F.Z. Integrativ yondashuv asosida bolajak tarbiyachilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning nazariy -metodologik asoslari	80
Xakimov Sh.T. Yosh belbog'li kurashchilarga texnik usullarni o'rgatish bosqichlari	83
O'rinboyev L.X. Farmakodinamikaning fan sifatida farmakologiyada tutgan o'rni	89
Sobirjonov I.T. Farmakokopetentlik tushunchasi va uning asosiy komponentlari	95
No'monova G.D. Klinik farmakologiya fani o'qitish tizimining amalyotdagi holatini kredit-modul tizimi asosida tashkil etish	100
Xodjayev M.K. Oliy ta'lim muassasalarida futbol murabbiylarini tayyorlashning pedagogik aspektlari	105
Kodirov M.A., Otashev D.R. Basketbolda sportchilarni jaroxatlanishni oldini olish va tiklash usullari	110
Samatov D.T., Abdullaev G'A. Umumta'lim maktablarida yuqori sinf o'quvchilarining maxsus jismoniy tayyorgarligini darsdan tashqari mashg'ulotlar asosida rivojlantirishning pedagogik modeli	114
Samatov D.T., Abdullaev G'A. Umumiy o'rta ta'lim o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda darsdan tashqari mashg'ulotlarni innovatsion yondashuv asosida tashkil etish metodikasi	118
Mullajonov Sh.I. Sport turlarining tavsifi va sportchi faoliyatida ruhiy tayyorgarlikning roli	124
Otashev D.R., Otasheva O.H. O'smirlarnigh psixologik munosabatlari shakllantirishda jismoniy tarbiyani o'rni	129

innovatsion pedagogik metodlar kompetent mutaxassislar tayyorlashda asosiy vosita sifatida ishlatilishi lozim. Farmakokompetentlikni baholash uchun integrativ testlar, klinik vaziyat tahlili va monitoring tizimlari joriy qilinishi tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. World Health Organization. The Role of the Pharmacist in the Health Care System. WHO, 2021.2. Katzung B.G. Basic and Clinical Pharmacology. 15th ed. McGraw-Hill, 2021.
3. Harden R.M., Laidlaw J.M. Essential Skills for a Medical Teacher. Elsevier, 2020.
4. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi. Farmakologiya fanini o'qitish bo'yicha metodik tavsiyalar. Toshkent, 2022. 62-b.
5. Prince M., Felder R. Inductive Teaching and Learning Methods: Definitions, Comparisons, and Research Bases.
6. Mavlonov S.K. Farmakologiya asoslari va uning tibbiyotdagi ahamiyati. Toshkent: O'qituvchi. 2020. 77-b.

UO'K: 378.147:615.01

KLINIK FARMAKOLOGIYA FANI O'QITISH TIZIMINING AMALYOTDAGI HOLATINI KREDIT-MODUL TIZIMI ASOSIDA TASHKIL ETISH

<https://zenodo.org/records/18754726>

No'monova Go'zaloy Davronbek qizi
Andijon davlat tibbiyot institut

Annotatsiya. *Ma'lumki, farmakologiyaning taraqqiyoti amaliy tibbiyotni yuqori samarali dori vositalari bilan boyishiga olib keladi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti 1971-yili farmakologiyaning asosiy qismi bo'lgan klinik farmakologiyani alohida fan sifatida e'tirof etdi. Klinik farmakologiya farmodinamika, farmokinetika, dorilarning o'zoro ta'siri, ularning salbiy ta'sirlari kabi qismlardan iborat. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining barcha oliygohlari xususan, oliy tibbiy ta'limda ham o'quv jarayonlari 2020-yildan kredit-modul tizimi asosida tashkil etila boshlandi. Va aynan kredit-modul tizimi ta'limda uning sifatini oshirdi va bir qancha imkoniyatlarni yaratdi. Ushbu maqolada sog'liq saqlash tizimida va fan texnika taraqqiyotida klinik farmakologiya fanining o'rni, uning rivojlanish tarixi va klinik farmakologiya fanini mustaqil fan sifatida rivojlanishi, so'nggi 5 yil davomida oliy tibbiy ta'limda klinik farmakologiya fanini o'qitish jarayonini kredit-modul tizimi asosida tashkil etish ilmiy ma'lumotlar bilan yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Farmakologiya, klinik farmakologiya, fanining asosiy parametrlari, kredit-modul tizimi, kredit soatlar, ta'lim sifati.*

Аннотация. *Как известно, развитие фармакологии приводит к обогащению практической медицины высокоэффективными лекарственными средствами. В 1971 году Всемирная организация здравоохранения признала клиническую фармакологию, являющуюся важнейшей частью фармакологии, отдельной наукой. Клиническая фармакология включает в себя такие разделы, как фармакодинамика, фармакокинетика, изучение вредного воздействия лекарственных средств и их побочных эффектов. Все вузы Республики Узбекистан, особенно высшие медицинские учебные заведения, с 2020 года начали организовывать образовательные процессы на основе кредитно-модульной системы. И именно кредитно-модульная система позволила повысить качество образования и создала ряд возможностей. В статье представлены научные сведения о роли клинической фармакологии в системе здравоохранения и развитии науки и техники, истории ее развития и становления клинической фармакологии как самостоятельной дисциплины, а также организации процесса преподавания клинической фармакологии в высших медицинских учебных заведениях за последние 5 лет на основе кредитно-модульной системы.*

Ключевые слова: *Фармакология, клиническая фармакология, основные параметры дисциплины, кредитно-модульная система, кредитные часы, качество образования.*

Abstract. *It is known that the development of pharmacology leads to the enrichment of practical medicine with highly effective drugs. In 1971, the World Health Organization recognized clinical pharmacology, which is a major part of pharmacology, as a separate discipline. Clinical pharmacology consists of such parts as pharmacodynamics, pharmacokinetics, drug interactions, and their adverse*

effects. Also, in all universities of the Republic of Uzbekistan, especially in higher medical education, educational processes began to be organized on the basis of the credit-module system from 2020. And it is the credit-module system that has improved the quality of education and created a number of opportunities. This article provides scientific information on the role of clinical pharmacology in the healthcare system and in the development of science and technology, the history of its development and the development of clinical pharmacology as an independent discipline, and the organization of the teaching process of clinical pharmacology in higher medical education based on the credit-module system over the past 5 years.

Keywords: *Pharmacology, clinical pharmacology, basic parameters of the discipline, credit-module system, credit hours, quality of education.*

Farmakologiya fanining rivojlanishi amaliy tibbiyotda yuqori samaradorlikka ega dori vositalarining yaratilishiga va qo'llanilishiga zamin yaratdi. Hozirgi kunda ilmiy hamda amaliy tibbiyotda dorilarning inson organizmiga ta'siri bo'yicha to'plangan xalqaro tajribalar asosida Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti 1971-yilda farmakologiyani muhim yo'nalishi bo'lgan klinik farmakologiyani mustaqil fan sifatida tan oldi. Ushbu qarorning asosiy maqsadi — dorilarning farmakodinamikasi va farmakokinetikasini, ularning o'zaro ta'siri hamda salbiy oqibatlarini zamonaviy ilmiy yondashuvlar yordamida chuqur o'rganishdan iboratdir. Klinik farmakologiya - bu muayyan kasallik yoki sindrom bilan og'rikan bemorga dori tanlashda, ularning klinik va farmakologik xususiyatlarini hisobga olib, eng maqbul va xavfsiz dori kombinatsiyasini tavsiya etish, shuningdek, olib borilayotgan farmakoterapiyaning samaradorligi hamda xavfsizligini nazorat qilishga qaratilgan fan sohasidir. Ushbu yo'nalishning shakllanishi va rivojlanish tarixi bir nechta muhim bosqichlardan iborat bo'lib, har bir davr farmakologiyani ilmiy asoslarini yanada boyitgan:

Dori vositalarining inson organizmiga ta'siri haqidagi dastlabki tasavvurlar insoniyat tarixining eng qadimiy bosqichlariga borib taqaladi. Miloddan avvalgi davrlarda Misr, Xitoy va Yunoniston singari sivilizatsiyalarda tabiblar, ya'ni o'sha davrning shifokorlari, bemorlarni asosan o'simliklardan tayyorlangan dorilar hamda turli tabiiy moddalardan foydalangan holda davolaganlar. O'sha davr farmakologiyasi empirik tajribalarga asoslangan bo'lib, ilmiy tahlil va nazariy yondashuvlardan xoli edi. Keyinchalik farmakologiya fani rivoj topgan sari uning tarkibida klinik farmakologiya alohida yo'nalish sifatida shakllana boshladi.

XVI asrda mashhur olim Paracelsus dorilarning biologik ta'sirini ilmiy asosda o'rganish yo'lini boshlab berdi. U "miqdor va ta'sir o'rtasidagi bog'liqlik" tamoyilini ilgari surdi. Ushbu g'oyaga ko'ra, dorining foydali yoki zararli ta'siri ko'p jihatdan uning dozasi bilan belgilanadi. XVII–XVIII asrlarda farmakologiya mustaqil fan sifatida shakllanib, dori vositalarining xavfsizligi, samaradorligi va ta'sir mexanizmini ilmiy yo'l bilan o'rganish jarayoni yo'lga qo'yildi. Bu davr farmakologiyani tajriba va nazariya uyg'unligiga asoslangan zamonaviy ilmiy yo'nalishga aylantirishda muhim bosqich bo'ldi. Klinik farmakologiya tadqiqotlarining shakllanishi va dori vositalarining sinovdan o'tkazilishi (XIX asr)

XIX asrda ilm-fan va tibbiyot sohalarining tez sur'atlarda rivojlanishi natijasida klinik farmakologiyani asosiy yo'nalishlari vujudga kela boshladi. Ushbu davrda yangi dori moddalari yaratilgan bo'lib, ularning inson organizmiga ta'siri maxsus klinik tadqiqotlar yordamida o'rganila boshlandi. Farmakologiyani muhim bo'limlari – farmakodinamika va farmakokinetika – jadal rivojlanib, dorilarning organizmga kirgandan keyingi ta'sir mexanizmlari, so'rilishi, taqsimlanishi, biotransformatsiyasi va chiqarilish jarayonlari chuqur tahlil qilindi. Bu davr klinik farmakologiyani mustahkam ilmiy poydevorini yaratgan bosqich sifatida e'tirof etiladi.

XX asrga kelib, farmakologiya hamda tibbiyotning boshqa yo'nalishlarida kuzatilgan katta ilmiy yutuqlar natijasida klinik farmakologiya mustaqil fan sifatida shakllandi. 1930–1940-yillarda dorilarni klinik sinovdan o'tkazishning yangi metodologiyalari ishlab chiqildi. Dastlabki tajribalar asosan hayvonlarda — quyon, kalamush, sichqon, it va mushuklarda o'tkazilgan bo'lib, bu tadqiqotlar dorilarning inson organizmiga ta'sirini bashorat qilish imkonini bergan. Shu bilan birga, klinik farmakologiyada dorilarning xavfsizligi va samaradorligini baholash uchun aniq ilmiy protokollar va standartlar ishlab chiqildi. Bu yondashuv tibbiyot amaliyotida dori vositalarining ishonchliligi va xavfsizligini ta'minlashda muhim o'rin tutdi.

Yuqorida qayd etib o'tganimizdek, dori preparatlarining samaradorligi va xavfsizligini, bemorlar uchun farmakoterapiyaning ratsional bo'lishini ham o'rganadi. Klinik farmakologiya dori vositalarining farmakodinamikasi va farmakokinetikasi kabi jarayonlarini chuqur o'rganish, tushinish, bilim ko'nikmalar hosil qilish va amalyotga ularni tatbiq eta olishni ta'minlaydi. Chunki, klinik farmakologiya fanining poydevor qismi dori vositasi bo'lsa, uning asosiy ildizlari farmakodinamika va farmakokinetika kabi tushunchalardir. Dorining inson organizmidagi harakatini tushinish uchun dastlab, ularni bilish kerak. Ushbu fan esa aynan shu jarayonlarni kengroq tushuntira oladigan yagona fandır. Farmakodinamika- dori vositalarining biologik obyekt va inson organizmiga ta'siri natijasida kelib chiqadigan o'zgarishlarni o'rganadi. Qisqacha qilib aytganda, dorining organizmga ta'siridir. Bu jarayonda dori ta'sir qiladigan nishon a'zolar bo'ladi va ular: ion kanallari, retseptorlar va fermentlardir. Bundan tashqari dori vositalarning o'zoro ta'siri kabi muhim tushunchalar ham bor va ular aynan farmakodinamikaning qismlari hisoblanadi. Dori vositalarining o'zoro ta'sirlarlari sinergizm, antagonizm, va indiferentlik kabi turlarga bo'linadi.

Farmakokinetika - organizmning doriga ta'siri bo'lib, dorilarning so'rilishini, oqsillar bog'lanishini, tarqalishini, biotransformatsiyasi va organizmdan chiqib ketish jarayonlarini o'rganadi va dorining organizmdagi miqdoriy dinamikasi haqida ma'lumot beradi. Dori vositalarining salbiy ta'sirlari ham klinik farmakologiya fanining asosiy parametrlaridan biridir. Bunga ko'ra qabul qilingan dorilarning allergiya, dispeptik o'zgarishlar, neyrotoksik, otatotoksik, gepatotoksik, kardiotoxik kabilari nojo'ya ta'sirlari bor. Bir so'z bilan aytganda, dori vositalarining nojo'ya ta'sirlari, Farmakodinamika va farmakokinetika jarayonlarini klinik farmakologiya fani chuqur o'rgatib, mukammal bilim beradi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonlarini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq [1], "Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida"gi nizom tasdiqlangan. Ushbu qarorga asosan, mamlakatdagi barcha oliy ta'lim muassasalari qatori oliy tibbiy ta'lim tizimida ham fanlar va ta'lim yo'nalishlari bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazila boshlandi [2].

Kredit-modul tizimi — bu o'quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy shakli bo'lib, u o'qitishning modul texnologiyalari va talaba bilimni kredit birliklari orqali baholash tizimiga asoslanadi. Ushbu tizimni to'liq joriy etish murakkab, ammo ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladigan ko'p qirrali jarayondir. Kredit-modul tizimining asosiy tamoyillaridan biri — talabaning mustaqil ishlashini ta'minlash va ta'lim jarayonida student-centered learning (ya'ni o'quv jarayonining markazida talaba turadi) tamoyiliga tayanishdir. Boshqacha aytganda, bu

tizimda talaba o'qituvchining tayyor ma'lumotini qabul qiluvchi emas, balki bilimni mustaqil izlovchi, tahlil qiluvchi va qo'llovchi sifatida faol ishtirok etadi.

An'anaviy ta'lim tizimida o'qituvchi va talaba faoliyatining nisbati taxminan 70% o'qituvchi – 30% talaba tarzida bo'lgan bo'lsa, kredit-modul tizimida bu nisbat 40% o'qituvchi – 60% talaba shaklida o'zgaradi. Bu esa o'quv jarayonida talabani faol fikrlash, mustaqil izlanish va o'z bilimni baholashga undovchi muhim omil hisoblanadi. Bundan tashqari, kredit-modul tizimi doirasida talabalarning bilimni baholash reyting tizimi orqali amalga oshiriladi. Bunda oraliq nazorat, mustaqil topshiriqlar, amaliy mashg'ulotlar va yakuniy imtihon natijalari asosida umumiy baho shakllantiriladi.

Kredit-modul tizimining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Talabani o'z bilim va ko'nikmalarini mustaqil rivojlantirishiga sharoit yaratish;
- O'quv yuklamasini xalqaro standartlarga moslashtirish;
- Ta'lim sifatini oshirish va natijadorlikni oshirishga qaratilgan baholash tizimini shakllantirish;
- O'quv jarayonini shaffof, aniq va adolatli mezonlar asosida tashkil etish. — o'quv jarayonlarini modul asosida tashkil qilish;

Kredit (credit) — bu talabani ma'lum bir fan yoki o'quv dasturi bo'yicha egallagan bilim va ko'nikmalarini baholash uchun qabul qilingan o'lchov birligidir. Boshqacha aytganda, kredit — talaba tomonidan muayyan vaqt davomida (odatda bir hafta) auditoriya mashg'ulotlari hamda mustaqil ta'lim uchun sarflangan o'quv yuklamasini ifodalaydi. Talaba ma'lum bir fanni o'zlashtirib, belgilangan topshiriqlarni bajargach va yakuniy nazorat (imtihon)ni muvaffaqiyatli topshirgachgina shu fan bo'yicha kreditni qo'lga kiritadi. Har bir talaba tanlagan ta'lim yo'nalishi yoki mutaxassislik bo'yicha diplom olish uchun o'z o'quv jarayoni davomida zarur miqdordagi kreditlarni to'plab boradi. To'plangan kreditlar nafaqat bakalavriat yoki magistratura bosqichini tugatish uchun, balki keyinchalik malaka oshirish, qayta tayyorlanish yoki qo'shimcha oliy ma'lumot olish jarayonida ham talaba uchun foydali "akademik kapital" sifatida xizmat qiladi. Iqtisodiy nuqtayi nazardan, kreditlarni yig'ish jarayoni talabani shaxsiy "akademik aktivi"ni shakllantiradi, ya'ni u o'z bilim investitsiyasini orttirib boradi.

Kredit texnologiyasi - ta'lim oluvchilarga o'z o'quv faoliyatida ma'lum darajada erkinlik beradi. Xususan, talabalar ishchi o'quv rejasida belgilangan tanlov fanlarini mustaqil ravishda tanlash, shuningdek, individual o'quv rejasini shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunda ularga nafaqat fanlarni, balki ularni o'qitadigan professor-o'qituvchilarni ham tanlash huquqi beriladi. Bu esa talabani o'z qiziqishlari va ehtiyojlariga mos ta'lim yo'lini tanlash imkoniyatini kengaytiradi. Bunday yondashuv o'quv jarayonining shaffofligini oshirib, ta'lim sifatini baholashda muhim ko'rsatkich sifatida namoyon bo'ladi.

Modul esa — ma'lum bir mavzu yoki mavzular majmuasini o'z ichiga olgan, yakuniy nazorat bilan yakunlanadigan mustaqil o'quv blokidir. Har bir modul talabani muayyan fan bo'yicha bilim darajasini aniqlash va baholashga xizmat qiladi.

Kompetensiyaviy yondashuv — bu ta'lim jarayonida o'quvchi yoki talabani nazariy bilimlarini amaliy ko'nikma hamda klinik fikrlash bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan metodologik yondashuvdir. Bunday yondashuv, ayniqsa, tibbiy ta'limda muhim ahamiyat kasb etib, o'qitish jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi [3].

Bugungi kunda kredit-modul tizimini joriy etishda dunyo miqyosida to'rtta asosiy modeldan foydalaniladi:

- AQSh kredit tizimi (USCS – United States Credit System);
- Yevropa kredit tizimi (ECTS – European Credit Transfer System);
- Osiyo–Tinch okeani kredit tizimi (UCTS – University Credit Transfer Scheme);
- Buyuk Britaniya kredit tizimi (CATS – Credit Accumulation and Transfer System).

Mazkur modellarning ichida eng keng tarqalgani — AQSh va Yevropa (ECTS) kredit tizimlaridir. Hozirda O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi mamlakat oliy ta‘lim tizimiga kredit-modul modelini joriy etishda aynan Yevropaning ECTS tizimiga tayanishni ustuvor yo‘nalish sifatida belgilab olgan.

ECTS tizimi Yevropa Ittifoqi va Bolonya jarayoniga qo‘shilgan davlatlar uchun yagona akademik baholash va kredit tan olish mexanizmini yaratadi. Bu tizim talabalarga muhim afzalliklar beradi. Jumladan, talaba bir universitetda olgan kreditlari va akademik natijalarini boshqa davlatdagi hamkor oliy ta‘lim muassasalarida tan oldira oladi, ya‘ni kreditlar “konvertatsiya” qilinadi. Shu orqali talaba o‘z o‘qishini boshqa OTMda davom ettirishi, tiklashi yoki tamomlashi imkoniyatiga ega bo‘ladi. ECTS tizimiga ko‘ra, talabaning bir yillik o‘quv yuklamasi 60 kredit miqdorida belgilanadi. Agar o‘quv yili ikki semestrda bo‘linsa, har bir semestrda 30 kredit to‘planadi.

- Bakalavriat bosqichi odatda 3–4 yilni tashkil etadi va talaba bakalavr darajasini olish uchun jami 180–240 kredit to‘plashi zarur.

- Magistratura dasturi 1–2 yil davom etadi va uni yakunlash uchun 60–120 kredit yig‘ish talab etiladi [4].

Bu tizim talabalarga xalqaro darajadagi ta‘lim olish, o‘qish jarayonini shaffoflashtirish hamda akademik mobillikni ta‘minlash imkonini yaratadi.

1) Klinik farmakologiya fanini kredit-modul tizimi asosida o‘qitish: ilmiy-uslubiy va amaliy jihatlar:

Agar klinik farmakologiya faniga jami 114 soat ajratilgan bo‘lsa, u 4 kreditga teng bo‘ladi. Talaba bir semestr davomida 20–25 kredit to‘plasa, smestrni muvaffaqiyatli yakunlab, keyingi bosqichga o‘tishga haqli bo‘ladi. Kredit-modul tizimi talabalarga mustaqil ishlashga keng imkoniyat yaratadi, shuningdek, fanlardan qarzdorliklarni belgilangan muddatlarda (masalan, yozgi yoki qishki semestrlarda) topshirish imkonini beradi.

2) Ilmiy-metodik asoslar:

Klinik farmakologiya kursini yakunlagan talaba quyidagi kompetensiyalarni egallashi lozim:

- Dorilarning farmakokinetik va farmakodinamik xususiyatlarini tahlil qilish;
- Individual bemor holatiga mos dori tanlashni amalga oshirish;
- Nojo‘ya ta‘sirlarni oldindan aniqlash va farmakonazoratni yuritish;
- Klinik holatlarda dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilish.

3) O‘qitish usullari:

Kredit-modul tizimi an‘anaviy ma‘ruzalar bilan bir qatorda interaktiv va amaliy yo‘naltirilgan metodlarni ham o‘z ichiga oladi: klinik case-study (keys-stadilar), problem-based learning (muammoli o‘qitish), simulyatsion mashg‘ulotlar va OSCE (Objective Structured Clinical Examination), kichik guruhlar bilan farmakoterapiya bo‘yicha muhokamalar, elektron platformalar (Moodle, Google Classroom va boshqalar) orqali mustaqil ta‘lim.

4) Baholash tizimi:

Baholash ikki turga bo‘linadi: jarayonli (formativ) va yakuniy (summativ):

- 1) Jarayonli baholash: seminarlar, testlar, case yechimlari, laboratoriya mashg‘ulotlari;
- 2) Mustaqil topshiriqlar: referatlar, prezentatsiyalar, klinik tahlillar;
- 3) Yakuniy nazorat: testlar, yozma ishlar, og‘zaki javoblar yoki OSCE shakli.

O'zbekiston tajribasida: O'zbekiston tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida (Toshkent tibbiyot akademiyasi, Andijon va Samarqand davlat tibbiyot universitetlari) 2020-yildan boshlab kredit-modul tizimi joriy qilinmoqda. Klinik farmakologiya fanida- 3–4 kurs talabalari uchun 4–6 kredit ajratiladi;

*Har modulda 2–3 asosiy klinik yo'nalish (kardiologiya, infeksiyon kasalliklar, endokrinologiya va boshqalar) qamrab olinadi;

*Darslarning 50% gacha interaktiv va klinik muhitda o'tkazilishi ta'minlanadi;

*Baholash jarayonida OSCE va test tizimlari integratsiyalashgan holda qo'llaniladi. . [30,32,33].

5) Natijalar va samaradorlik:

- Kredit-modul tizimi asosida o'qitilgan talabalar farmakoterapiya bo'yicha qaror qabul qilishda 20–25% yuqori natija ko'rsatgan;

- Talabalarning mustaqil ishlash va dalillarga asoslangan tibbiyotdan foydalanish ko'nikmalari sezilarli darajada oshgan;

- Klinik holatlarni tahlil qilishda analitik fikrlash va amaliy qaror qabul qilish ko'nikmalari shakllangan.

Xulosa shundan iboratki, Klinik farmakologiya fanini kredit-modul tizimi asosida o'qitish:

- Talabalar klinik fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi;
- O'qituvchi va talaba o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlaydi;
- Mustaqil ta'lim va o'zini baholash madaniyatini shakllantiradi;
- Talabalarni zamonaviy tibbiyot amaliyotiga tayyor, malakali mutaxassis sifatida yetishtirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. Kredit-modul tizimini joriy etish metodik ko'rsatmalar, Toshkent, 2022.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 824-son qarori. Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish to'g'risidagi qarori.

3. Izimovna U.R. "Kreditno-modulnaya sistema organizatsii obucheniya kak faktor formirovaniya umeniy samoobrazovatelnoy deyatelnosti studenta". Avtoreferat. – Orenburg. 2010.

4. Усмонов Б.Ш., Хабибуллаев Р.А. Олий ўқув юртларида ўқув жараёнини кредит модуль тизимида ташкил қилиш. Ўқув қўлланма. –Тошкент, ТКТИ, 2020. 120-бет

UO'K 373.5:796

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA FUTBOL MURABBIYLARINI TAYYORLASHNING PEDAGOGIK ASPEKTLARI

<https://zenodo.org/records/18754732>

Xodjayev Mansurjon Kabildjanovich
Andijon davlat universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida futbol murabbiylarini tayyorlash jarayonining pedagogik asoslari hamda ularni takomillashtirish metodikasi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil etilgan. Tadqiqotda futbol murabbiylarini kasbiy-pedagogik tayyorlashning dolzarb muammolari, mavjud ta'lim tizimidagi kamchiliklar va ularni bartaraf etish yo'llari ochib berilgan, shuningdek, futbol murabbiylarini tayyorlashda kompetensiyaviy, tizimli va faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvlarning ahamiyati asoslab berilgan hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida metodik takomillashtirish imkoniyatlari yoritilgan.

